



**IMPROVING FINANCIAL CREDIT MECHANISMS IN THE FIELD OF POVERTY REDUCTION AND EMPLOYMENT IN THE COUNTRY (ON THE EXAMPLE OF THE SURKHANDARYA REGION)**

**Ruziev Otabek Abdimuminovich**

First Deputy Head of the Department of Employment and Poverty Reduction of the Surkhandarya Region

oruziyev40@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19905058>

**ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>nd</sup> April 2026

Accepted: 28<sup>th</sup> April 2026

Online: 29<sup>th</sup> April 2026

**KEYWORDS**

Poverty, employment, financial and credit mechanisms, soft loans, commercial banks, small business, family entrepreneurship, loan portfolio, problem loans, "mahalla seven", economic development, Surkhandarya region.

**ABSTRACT**

*This article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the application of financial and credit mechanisms in the field of poverty reduction and ensuring public employment using the example of the Surkhandarya region. The study examined preferential loans allocated by commercial banks, targeted support mechanisms implemented based on the "mahalla seven" system, and financial instruments aimed at developing small business and family entrepreneurship. The quality of the loan portfolio, the share of non-performing loans, and their impact on economic stability were also assessed based on statistical data. As a result of the analysis, the strategic importance of financial and credit mechanisms in the process of poverty reduction and employment growth was substantiated, and practical directions aimed at increasing their effectiveness were identified.*

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСОВОГО КРЕДИТОВАНИЯ В СФЕРЕ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ И ЗАНЯТОСТИ В СТРАНЕ (НА ПРИМЕРЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ)**

**Рузиев Отабек Абдимуминович**

Первого заместителя начальника Управления занятости и сокращения бедности Сурхандарьинской области

oruziyev40@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19905058>

**ARTICLE INFO**

Received: 22<sup>nd</sup> April 2026

Accepted: 28<sup>th</sup> April 2026

Online: 29<sup>th</sup> April 2026

**KEYWORDS**

Бедность, занятость, финансово-кредитные механизмы, льготные кредиты, коммерческие банки, малый бизнес, семейное

**ABSTRACT**

*В данной статье на примере Сурхандарьинской области научно-теоретически и практически проанализированы применение финансово-кредитных механизмов в сфере сокращения бедности и обеспечения занятости населения, а также их эффективность. В исследовании изучены льготные кредиты, выделяемые коммерческими банками, механизмы адресной поддержки, реализуемые на основе системы "махаллинской семерки" а также*



предпринимательство,  
кредитный портфель,  
проблемные кредиты,  
“махаллинская семерка”  
экономическое  
развитие,  
Сурхандарьинская  
область.

финансовые инструменты, направленные на  
развитие малого бизнеса и семейного  
предпринимательства. Также на основе  
статистических данных были оценены качество  
кредитного портфеля, доля проблемных кредитов и  
их влияние на экономическую стабильность. В  
результате анализа обоснована стратегическая  
значимость финансово-кредитных механизмов в  
процессе сокращения бедности и повышения  
занятости, а также определены практические  
направления, направленные на повышение их  
эффективности.

## MAMLAKATDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK SOHASIDA MOLIVAVIY KREDIT MEHANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

**Ro‘ziyev Otabek Abdimuminovich**

Surxondaryo viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘ining  
birinchi o‘rinbosari  
[oruziyev40@gmail.com](mailto:oruziyev40@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19905058>

### ARTICLE INFO

Received: 22<sup>nd</sup> April 2026  
Accepted: 28<sup>th</sup> April 2026  
Online: 29<sup>th</sup> April 2026

### KEYWORDS

Kambag‘allik, bandlik,  
moliyaviy-kredit  
mexanizmlari, imtiyozli  
kreditlar, tijorat banklari,  
kichik biznes, oilaviy  
tadbirkorlik, kredit  
portfeli, muammoli  
kreditlar, “mahalla  
yettiligi”, iqtisodiy  
rivojlanish, Surxondaryo  
viloyati.

### ABSTRACT

Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati misolida  
kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta‘minlash  
sohasida moliyaviy-kredit mexanizmlarining qo‘llanilishi  
hamda ularning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy  
jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda tijorat banklari  
tomonidan ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, “mahalla  
yettiligi” tizimi asosida amalga oshirilayotgan manzilli  
qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda kichik biznes va  
oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy  
instrumentlar o‘rganildi. Shuningdek, kredit portfeli sifati,  
muammoli kreditlar ulushi va ularning iqtisodiy  
barqarorlikka ta‘siri statistik ma‘lumotlar asosida  
baholandi. Tahlillar natijasida moliyaviy-kredit  
mexanizmlarining kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni  
oshirish jarayonidagi strategik ahamiyati asoslab berildi  
hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan  
amaliy yo‘nalishlar belgilab olindi.

### KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida  
kambag‘allikni qisqartirish va aholi  
bandligini ta‘minlash dunyo  
mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy

siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri  
hisoblanadi. Xususan, rivojlanayotgan  
mamlakatlarda daromadlar tengsizligi,  
moliyaviy resurslarga kirish  
imkoniyatlarining cheklanganligi hamda



ish o'rinlarining yetishmasligi kambag'allik darajasining yuqori bo'lib qolishiga sabab bo'lmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jahonda milliardlab insonlar rasmiy moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa ularning iqtisodiy faolligini va daromad olish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklaydi [1, 1-7].

Ilmiy adabiyotlarda kambag'allikni qisqartirishning samarali vositalaridan biri sifatida moliyaviy inklyuziya va mikro moliyalashtirish mexanizmlari alohida e'tirof etiladi. Xususan, mikroqarzarlar va kichik biznesni moliyalashtirish orqali aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish ularning daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilishi isbotlangan [2]. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatining kengayishi kambag'allikni kamaytirishda ayniqsa samarali bo'lib, bu jarayon aholining ijtimoiy himoyasi va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [3].

Biroq, ilmiy tadqiqotlar natijalari moliyaviy-kredit mexanizmlarining kambag'allikka ta'siri murakkab va ko'p omilli ekanligini ko'rsatadi. Ayrim hollarda mikro moliyalashtirish dasturlari daromadlarni sezilarli darajada oshirsa-da, boshqa holatlarda ularning ta'siri cheklangan yoki notekis bo'lishi mumkin [1, 1-7]. Bu esa moliyaviy-kredit instrumentlarini qo'llashda ularning samaradorligini oshirish, manzilliligini kuchaytirish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida institutsional jihatdan mustahkamlanib, ushbu yo'nalishda kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "mahallabay" ishlash tizimi asosida hududiy kesimda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni aniqlash, aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, imtiyozli kreditlash mexanizmlarini kengaytirish va o'zini o'zi band qilish dasturlarini rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar joriy etildi. Mazkur jarayonda tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit resurslari iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va kichik biznesni rivojlantirishning muhim moliyaviy instrumenti sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Biroq, hududlar kesimida moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligi bir xil darajada emasligi kuzatilmoqda. Xususan, Surxondaryo viloyati misolida kredit mablag'larining maqsadli yo'naltirilish darajasi, investitsion loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimi, aholi moliyaviy savodxonligining darajasi hamda kreditlash jarayonlarining monitoring va nazorat mexanizmlarida qator tizimli muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Ushbu omillar kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini pasaytirib, yaratilayotgan bandlik darajasi va kambag'allikni qisqartirish natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyati misolida



mamlakatda kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda qo'llanilayotgan moliyaviy-kredit mexanizmlarining amaldagi holatini tizimli va kompleks tahlil qilish hamda ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Mazkur tadqiqot kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, u kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot dizayni tavsifiy (descriptive), tahliliy (analytical) va qiyosiy (comparative) yondashuvlarning integratsiyasiga asoslandi. Bunday yondashuv o'rganilayotgan jarayonni nafaqat tavsiflash, balki uning ichki sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlash hamda hududiy va vaqt kesimidagi farqlarni tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy statistik va institutsional manbalar tashkil etdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar, Surxondaryo viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi hisobotlari, tijorat banklarining kredit portfeli to'g'risidagi ma'lumotlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Mazkur ma'lumotlar 2020-2025 yillar oralig'ini qamrab olib, hududiy kesimda kambag'allik darajasi, bandlik ko'rsatkichlari va ajratilgan kredit resurslari dinamikasini o'rganish imkonini berdi.

Tadqiqotda bir nechta ilmiy metodlardan kompleks tarzda

foydalanildi. Avvalo, statistik tahlil metodi asosida kredit ajratish hajmi, bandlik darajasi va kambag'allik ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zgarishlar dinamikasi baholandi. Qiyosiy tahlil metodi yordamida Surxondaryo viloyatining turli tumanlari kesimida moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligi solishtirildi, shuningdek, vaqt kesimida (yillar bo'yicha) o'zgarish tendensiyalari aniqlandi. Tizimli yondashuv asosida moliyaviy-kredit mexanizmlari yagona ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida ko'rib chiqilib, uning tarkibiy elementlari – bank sektori, aholi, davlat institutsiyalari va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tadqiqot doirasida SWOT (Strengths, Weaknesses, Opportunities, Threats) tahlili qo'llanilib, amaldagi moliyaviy-kredit mexanizmlarining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar hamda tashqi va ichki xavf omillari aniqlashtirildi. Ushbu yondashuv orqali kreditlash tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlashda qo'llanilayotgan moliyaviy-kredit mexanizmlari tanlandi. Tadqiqot predmeti esa ushbu mexanizmlar orqali aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va kambag'allik darajasini kamaytirish jarayonlarida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasidan iborat.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda chuqur tahlil



o'tkazish hamda ilmiy asoslardan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

## **NATIJALAR**

Mazkur tadqiqot doirasida 2020-2025 yillar oralig'ida Surxondaryo viloyatida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash jarayonida moliyaviy-kredit mexanizmlarining amaliy samaradorligi statistik, qiyosiy hamda tizimli tahlil usullari asosida o'rganildi. Empirik natijalar hududda kreditlash hajmining izchil oshib borishi, bandlik ko'rsatkichlarining kengayishi hamda kambag'allik darajasining pasayishi o'rtasida muayyan o'zaro bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rganilayotgan davrda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi bosqichma-bosqich ortib borgan. Xususan, 2020 yilda viloyatda ajratilgan kreditlar hajmi 2,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 8,3 trln so'mga yetgan. Bu esa kreditlash hajmining qariyb 2,9 baravar oshganligini anglatadi. Kreditlashning eng faol bosqichi 2022-2023 yillarga to'g'ri kelib, mazkur davrda davlat dasturlari va imtiyozli kreditlash mexanizmlarining

### **1-jadval.**

**Surxondaryo viloyatida ajratilgan kreditlar hajmi dinamikasi (2020-2025 yy.)g kengayishi kuzatilgan.**

Yil	Kreditlar hajmi (mlrd so'm)	O'sish sur'ati (%)
2020	2 900	-
2021	3 350	115
2022	4 450	133
2023	5 800	130
2024	7 100	122
2025	8 300	117

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, kreditlash hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ayniqsa 2022-2023 yillarda yuqori o'sish sur'atlari (130 foizdan ortiq) qayd etilgan. 2024-2025 yillarda esa o'sish sur'atlarining nisbatan barqarorlashuvi kreditlash tizimining muayyan darajada institutsional barqarorlikka erishganligini ko'rsatadi.

Kredit resurslarining tarkibiy tahlili ularning asosiy qismi kichik biznes, xizmat ko'rsatish sohasi va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, "mahallabay ishlash" tizimi doirasida ajratilgan mikroqarzlilar va

subsidiyalangan kreditlar ulushi sezilarli darajada oshgan. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi va chorvachilik yo'nalishlariga yo'naltirilgan kreditlar hajmining ortishi hududiy iqtisodiy faollikning kengayishiga xizmat qilgan.

Bandlik ko'rsatkichlari tahlili kreditlash hajmining ortishi bilan bevosita bog'liq holda ijobiy o'zgarishlar yuzaga kelganligini ko'rsatdi. Xususan, yangi yaratilgan ish o'rinlari soni o'rganilayotgan davrda izchil o'sib borgan hamda o'zini o'zi band qilgan aholi ulushi ham sezilarli darajada ortgan.

### **2-jadval.**



## Yangi ish o'rinlari va bandlik ko'rsatkichlari dinamikasi (2020-2025 yy.)

Yil	Yangi ish o'rinlari (mingta)	O'zini o'zi band qilganlar ulushi (%)
2020	45	18
2021	52	21
2022	68	25
2023	81	29
2024	95	33
2025	108	37

Jadval ma'lumotlari yangi ish o'rinlari soni 2020 yildagi 45 mingdan 2025 yilga kelib 108 mingtaga yetib, qariyb 2,4 baravar oshganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'zini o'zi band qilgan aholi ulushi 18 foizdan 37 foizgacha ko'tarilgan. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish sohalarida bandlikning kengayishi sezilarli darajada kuzatilgan bo'lib, bu kredit mablag'larining real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi rolini tasdiqlaydi.

Yil	Kambag'allik darajasi (%)
2020	17.5
2021	16.2
2022	14.8
2023	13.1
2024	11.9
2025	10.6

Mazkur jadvalga ko'ra, 2020 yilda 17,5 foizni tashkil etgan kambag'allik darajasi 2025 yilga kelib 10,6 foizgacha pasaygan, ya'ni 6,9 foiz punktga kamaygan. Eng sezilarli pasayish 2022-2024 yillar oralig'ida qayd etilgan bo'lib, mazkur davr kreditlash hajmining jadal oshgan bosqichiga to'g'ri keladi. Bu esa moliyaviy resurslarning iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali aholi

Kambag'allik darajasi dinamikasi ham moliyaviy-kredit mexanizmlarining ijtimoiy samaradorligini aks ettiradi. Tahlil natijalari viloyatda kambag'allik darajasi izchil qisqarib borayotganligini ko'rsatdi.

### 3-jadval. Surxondaryo viloyatida kambag'allik darajasi dinamikasi (2020-2025 yy.)

daromadlariga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini anglatadi.

Hududiy kesimdagi qiyosiy tahlil natijalari viloyat tumanlari o'rtasida moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash maqsadida 1 mlrd so'm kredit hisobiga yaratilgan ish



o'rinlari soni asosiy indikator sifatida qo'llanildi.

## Tumanlar bo'yicha kredit samaradorligi ko'rsatkichlari (2025 yil)

### 4-jadval.

Tuman	Kredit (mlrd so'm)	Yangi ish o'rni (ta)	1 mlrd so'mga ish o'rni
Termiz	950	12 500	13.1
Denov	870	11 800	13.5
Sherobod	620	6 900	11.1
Qumqo'rg'on	710	7 200	10.1
Boysun	480	4 300	8.9

Hududiy tahlil natijalariga ko'ra, Denov va Termiz tumanlarida kredit mablag'laridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lib, mos ravishda 13,5 va 13,1 ta ish o'rni yaratilgan. Aksincha, Boysun tumanida ushbu ko'rsatkich 8,9 tani tashkil etgan bo'lib, bu hududiy iqtisodiy infratuzilma, investitsiya muhitining farqlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish darajasi bilan izohlanadi.

Tizimli tahlil natijalari kredit resurslarining bandlik yaratishdagi samaradorligi kredit yo'naltirilgan soha va loyiha turiga qarab sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Ayniqsa, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirilgan kreditlar bandlik yaratishda yuqori natijadorlikni namoyon etgan bo'lsa, kapital talab qiluvchi ayrim loyihalarda samaradorlik nisbatan past bo'lgan.

Moliyaviy inklyuziya darajasi bilan bog'liq ko'rsatkichlar tahlili aholi tomonidan bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayganligini ko'rsatdi. Kredit oluvchilar sonining ortishi, yangi tadbirkorlik subyektlarining shakllanishi hamda aholi o'rtasida moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning oshishi hududiy iqtisodiy faollikni

rag'batlantiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy guruhlar, xususan kam ta'minlangan qatlamlar o'rtasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining nisbatan pastligi tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

SWOT tahlili natijalari asosida moliyaviy-kredit mexanizmlarining amaldagi holatiga xos bir qator xususiyatlar aniqlandi. Kuchli tomon sifatida kreditlash hajmining ortib borayotgani, davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining kengaygani hamda bandlik yaratish imkoniyatlarining oshgani qayd etildi. Zaif tomon sifatida ayrim hollarda kredit mablag'larining maqsadsiz ishlatilishi, loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va monitoring mexanizmlarining sustligi aniqlangan. Mavjud imkoniyatlar sifatida hududiy iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytirish salohiyati qayd etilgan bo'lsa, tahdid omillari sifatida kredit yuklamasining ortishi va kreditlarning qaytmaslik risklari mavjudligi kuzatilgan.



Umuman olganda, o'rganilgan davr natijalari Surxondaryo viloyatida moliyaviy-kredit mexanizmlarining kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash jarayonlarida muhim iqtisodiy instrument sifatida shakllanib borayotganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi hududiy iqtisodiy sharoitlar, institutsional boshqaruv darajasi hamda kredit resurslarining maqsadli yo'naltirilishiga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lmoqda.

## MUHOKAMALAR

Mazkur tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida 2020–2025 yillar davomida moliyaviy-kredit mexanizmlarining kengayishi aholi bandligini oshirish va kambag'allik darajasini qisqartirish jarayonlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatganligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Olingan statistik ma'lumotlar kreditlash hajmining ortishi bilan bir qatorda yangi ish o'rinlari sonining ko'payishi hamda kambag'allik darajasining pasayishi o'rtasida muhim funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bu holat moliyaviy resurslarning iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi asosiy iqtisodiy instrumentlardan biri ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan,

Honohan P. tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda mikro moliyalashtirish tizimi kichik biznesni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda samarali vosita sifatida e'tirof etilgan [6]. Ularning fikricha, mikroqarzlilar orqali tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash iqtisodiy

o'sishni jadallashtiradi hamda ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, daromadlar tengsizligini kamaytirish va kambag'allikni qisqartirishda muhim omil [5].

Tadqiqot natijalari kreditlash hajmining keskin o'sishi ayniqsa 2022-2023 yillarda hududiy iqtisodiy faollikning sezilarli darajada kengayishiga olib kelganligini ko'rsatadi. Mazkur davrda yangi ish o'rinlari yaratish ko'rsatkichlarining keskin oshishi davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosatining kuchayishi hamda "mahallabay ishlash" tizimining joriy etilishi bilan izohlanadi. Ushbu yondashuv hududiy darajada iqtisodiy muammolarni aniqlash va ularni manzilli hal etish imkonini yaratgan bo'lib, natijada kredit resurslarining real sektorga yo'naltirilish samaradorligi oshgan.

Shu bilan birga, hududiy kesimdagi tahlillar moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligi barcha hududlarda bir xil darajada emasligini ko'rsatdi. Denov va Termiz tumanlarida kredit mablag'laridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgan bo'lsa, Boysun tumanida ushbu ko'rsatkich nisbatan past darajada kuzatilgan. Bu tafovutlar hududiy infratuzilma darajasi, logistika imkoniyatlari, tadbirkorlik muhitining rivojlanganligi hamda investitsiya jozibadorligi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro tajriba ham shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarning iqtisodiy natijadorligi hududiy iqtisodiy sharoitlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi [4]



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kredit resurslarining yo'naltirilgan sohasiga qarab ularning bandlik yaratishdagi samaradorligi sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, xizmat ko'rsatish va kichik biznes sohalariga yo'naltirilgan kreditlar qisqa muddatda yuqori bandlik samaradorligini ta'minlagan bo'lsa, kapital talab qiluvchi yirik investitsiya loyihalarida ish o'rinlari yaratish jarayoni nisbatan uzoq muddatni talab qilgan. Bu holat iqtisodiy nazariyada mehnat intensivligi yuqori bo'lgan tarmoqlar qisqa muddatda ko'proq ish o'rni yaratishi haqidagi konsepsiya bilan mos keladi.

Moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi ham hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'ldi. Kredit oluvchilar sonining ortishi, yangi tadbirkorlik subyektlarining tashkil etilishi hamda aholi o'rtasida bank xizmatlariga bo'lgan talabning oshishi iqtisodiy faollikni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Biroq, tadqiqot natijalari ayrim ijtimoiy guruhlar, xususan kam ta'minlangan qatlamlar o'rtasida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari hali ham cheklanganligini ko'rsatdi. Bu esa moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish, kreditlash jarayonlarini soddalashtirish va moliyaviy xizmatlarning hududiy qamrovini kengaytirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot natijalari kambag'allik darajasining izchil pasayishi moliyaviy-kredit mexanizmlarining ijtimoiy samaradorligini tasdiqlashini ko'rsatdi. Biroq, ushbu jarayon faqat kreditlash hajmining ortishi bilan emas, balki davlat

tomonidan amalga oshirilayotgan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosat choralarining natijasi sifatida shakllangan. Jumladan, kasb-hunar o'qitish dasturlari, subsidiyalar, ijtimoiy yordam mexanizmlari va bandlik dasturlarining kengaytirilishi kambag'allikni qisqartirish jarayoniga qo'shimcha ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli moliyaviy-kredit mexanizmlarini mustaqil omil sifatida emas, balki kengroq institutsional siyosat tizimining tarkibiy elementi sifatida baholash ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, tadqiqot natijalari kreditlash tizimining barqaror rivojlanishi uchun institutsional boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Xususan, kredit loyihalarini baholash tizimini modernizatsiya qilish, monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda kredit resurslarining maqsadli ishlatilishini ta'minlash kreditlash samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kredit risklarini boshqarish tizimining rivojlanishi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari moliyaviy-kredit mexanizmlarining kambag'allikni qisqartirish va bandlikni ta'minlash jarayonlarida muhim iqtisodiy instrument sifatida shakllanib borayotganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi hududiy iqtisodiy sharoitlar, institutsional boshqaruv darajasi hamda moliyaviy inklyuziya darajasi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Mazkur holat kelgusida hududiy rivojlanish siyosatini ishlab chiqishda differensial va manzilli



yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

## **XULOSA**

Mazkur tadqiqotda Surxondaryo viloyati misolida 2020-2025 yillar oralig'ida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash jarayonlarida moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligi kompleks empirik tahlil asosida o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchi, kreditlash hajmining barqaror va sezilarli darajada oshishi hududiy iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, mehnat bozori kengayishiga va yangi ish o'rinlari yaratilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Xususan, kredit resurslarining 2,9 baravar o'sishi bandlik ko'rsatkichlarining o'sish dinamikasi bilan bevosita korrelyatsiyaga ega ekanligi aniqlandi.

Ikkinchi, moliyaviy-kredit mexanizmlarining nisbatan yuqori samaradorligi kichik biznes, xizmat ko'rsatish va oilaviy tadbirkorlik sektorlarida kuzatildi. Ushbu sektorlar mehnat intensivligi yuqori bo'lib, qisqa

muddatda bandlik yaratish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Uchinchi, kambag'allik darajasining 17,5 foizdan 10,6 foizgacha pasayishi moliyaviy resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Biroq ushbu tendensiya nafaqat kreditlash hajmi, balki davlatning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosati va institutsional islohotlari bilan ham belgilanadi.

To'rtinchi, hududiy tahlil natijalari moliyaviy-kredit mexanizmlarining samaradorligi tumanlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko'rsatdi. Bu farqlar asosan infratuzilma rivojlanish darajasi, tadbirkorlik muhiti sifati va institutsional boshqaruv samaradorligi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari moliyaviy-kredit mexanizmlarining kambag'allikni qisqartirish va bandlikni oshirishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ularning samaradorligi hududiy rivojlanish darajasi va institutsional muhit sifatiga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi, bu esa differensial siyosat yondashuvlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

## **References:**

1. Meki M., Quinn S. Microfinance: an overview // Oxford Review of Economic Policy. 2024, Vol. 40, Issue 1. – P. 1-7. <https://doi.org/10.1093/oxrep/graee004>
2. Khanam D., Mohiuddin M., Hoque A. et al. Financing micro-entrepreneurs for poverty alleviation: a performance analysis of microfinance services offered by BRAC, ASA, and Proshika from Bangladesh // Journal of Global Entrepreneurship Research. 2018, Vol. 8, Article 27. <https://doi.org/10.1186/s40497-018-0114-6>
3. Kumar S. S., Qin J. Exploring the role of financial inclusion in poverty reduction: An empirical study // World Development Sustainability. 2023, Vol. 3, Article 100103. <https://doi.org/10.1016/j.wds.2023.100103>



4. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S., Hess J. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank, 2022.
5. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. Finance, inequality, and poverty: Cross-country evidence // Journal of Economic Growth. 2007. Vol. 12. – P. 27-49.
6. Honohan P. Cross-country variation in household access to financial services // Journal of Banking & Finance. 2008. Vol. 32. No. 11. – P. 2493-2500.